

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI UCHUN SAMARALI O‘QITISH  
USULLARI.**

**Majidova Feruza Maxmudovna**

*Osiyo xalqaro universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi*  
[feruzamajidova385@gmail.com](mailto:feruzamajidova385@gmail.com)

**Jabborova Ruxshona Otabek qizi**

*Osiyo xalqaro universiteti boshlang‘ich ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi*  
[ruxshonajabborova14@gmail.com](mailto:ruxshonajabborova14@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini samarali o‘qitishning zamонавиј yondashuvlari tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida faol o‘qitish usullari, ko‘rgazmali va amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati, individual yondashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yo’llari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishga qaratilgan metodlar tavsiflanadi.

**Kalit so‘zlar:** Boshlang‘ich ta’lim, faol o‘qitish usullari, individual yondashuv, interaktiv metodlar, ko‘rgazmali vositalar, amaliy mashg‘ulotlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, muammoli vaziyat, ijodiy fikrlash, ta’lim samaradorligi.

**Аннотация:** В данной статье будут проанализированы современные подходы к эффективному обучению младших школьников. Рассматриваются методы активного обучения в образовательном процессе, значение наглядно-практических занятий, индивидуальный подход и пути эффективного использования информационно-коммуникационных технологий. Также описаны методы, направленные на формирование у учащихся самостоятельного мышления, творческого подхода и интереса к обучению.

**Ключевые слова:** начальное образование, активные методы обучения, индивидуальный подход, интерактивные методы, наглядные пособия, практические занятия, информационно-коммуникационные технологии, проблемная ситуация, творческое мышление, эффективность обучения.

**Annotation:** this article analyzes modern approaches to effective education of elementary students. In the educational process, methods of active teaching, the importance of visual and practical training, an individual approach and ways to effectively use information and communication technologies are considered. Students also describe methods aimed at forming independent thinking, creative approach and interest in learning.

**Keywords:** Primary Education, active teaching methods, individual approach, interactive methods, visual aids, practical training, ICT, problem situation, creative thinking, educational effectiveness.

**Kirish.** Boshlang‘ich ta’lim inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, unda o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan dastlabki qiziqishlari shakllanadi. Zamonaviy ta’lim tizimi faqat bilim berish bilan cheklanmay, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga va hayotiy muammolarni hal qilishga o‘rgatishi kerak. Shu bois samarali o‘qitish usullarini aniqlash va ularni amaliyotga tadbiq etish dolzarb masala hisoblanadi. Faol o‘qitish usullari o‘quvchini bilim olish jarayonida markaziy figura sifatida ko‘radi. Bu usullar orqali o‘quvchilar nafaqat tayyor bilimni o‘zlashtiradilar, balki uni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda yechim topish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu yo'lida xalqaro tajribalarni o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Maktab ta'limi bolaning turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o'rnnini o'zgartiradi. Ya'ni maktabgacha bo‘lgan davrdagi o'yin faoliyati o'qish faoliyati bilan almashib, o'quvchida mas'uliyat hissini uyg'otadi. Bunda boshlang'ich ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarini egallashga qiziqishi o'z aqliy mehnat natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam nazorat qilib borish, hamda hayotda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirish, o‘quvchilarning olayotgan bilimlaridagi bo'shliqlarini o'z vaqtida to'ldira borish, iqtidorli o‘quvchilardagi intellektual potensialni muntazam rivojlanishiga shart-sharoit yaratish, o‘quvchilarni kattalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga qiziqtirish, ularning salomatliklarini muhofaza qilish va mustahkamlashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar hamda tajribalarni boyitish, sinfdan tashqari pedago gik tadbirlar rejasini ishlab chiqish, o'quv tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, pedagogika fanining eng ilg'or yutuqlaridan muntazam foydalanish, o'qituvchilarning ottonalar bilan hamkorlikdagi faoliyat yuritishlarini yo'lga qo'yish, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakalarini muntazam oshirib borishda zamonaviy usullardan foydalanish kabi vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida mazkur tizimning maqsad va vazifalari aniq belgilab berilgan bo'lib, bolaning ongi va tafakkuri mavjud bo‘lgan yashirin imkoniyatlarni aniqlash hamda rivojlantirish kichik maktab yoshidagi bolalarda ta'limning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarning o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishgagina emas, balki hayotiy muammolarni yechishga ham tayyorlaydi, o‘quvchilarda o'rganish va ta'lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Mazkur masalaga oid aniq vazifalar qo'yidagilarda o'z aksini topgan:

1. Boshlang'ich sinf o‘quvchilarida o'qish, o'rganish, o'zlashtirgan bilimlarni qo'llash va ko'nikmalarni shakllantirish;
2. Boshlang'ich sinf o‘quvchilarida yuqori darajada shakllangan bilish jarayoniga, bilish faoliyatiga intilishni kuchaytirish.

**Asosiy qism.** Boshlang'ich sinf o‘quvchilarining o'quv faoliyatiga qiziqishlarini shakllantirish maqsadida, o'quv jarayoniga boshlang'ich ta'lim mazmunini integratsiyalashni

**“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: INSON, FAN VA IQTISODIYOTNING  
YANGI UFQLARI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiysi

10-Mart, 2025-yil

targ'ib qilish, yangi innovatsiyalarni kiritish, axborot kommunikativ texnologiyalardan unumli foydalanish natijasida ta'lif sifatini oshishiga erishiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv jarayoniga tayyorlashda o'quvchilarning shaxsiy individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, o'quv jarayoniga jalb etishning pedagogik-psixologik asosini tashkil etib, ularda o'ziga ishonch hissini shakllantiradi. O'quvchining irodasi o'z psixik jarayonlarini sharoit talabi bilan ongli ravishda tormozlantirishda ayniqsa keraksiz histuyg'ularni bosib turishda ko'rindi. Ba'zan bolaning xulqi o'qituvchida qonuniy ravishda g'azab tug'diradi. Lekin, bunday vaziyatda o'qituvchi o'zini tutishi, vazmin bo'lishi kerak. Ta'lif jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining pedagogik qobiliyatiga va qiziqishiga bog'liqdir. F.N.Gonobolinning ta'kidlashicha, o'quvchining ba'zi psixik jarayonlari va xususiyatlari unda o'qituvchi shaxsiga xos sifatlarning shunday kompleksini tashkil qiladiki, buni pedagogik qobiliyat desak mubolag'a bo'lmaydi. Pedagogik-psixologik ta'sir ko'rsatish metodikasi bolalarning ijtimoiy-foydali faoliyatni pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun foydalaniladigan vositalar tizimidan iboratdir. Bu vositalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, bolalarning xulq-atvorini rag'batlantiradi, ularning qiyin va murakkab vazifalarini quvonch, ijodiy zavq-shavq manbaiga, har bir tarbiyalanuvchi o'quvchining shaxsiy muddaolariga aylantiradi. Fan, u qanday fan bo'lishidan qat'iy nazar, o'z usullarini yo'q narsadan yaratmaydi, ularni o'ylab topmaydi. U hayotdan, kishilar xulq-atvorining real omillarini, bolalar hayotini pedagogik-psixologik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarini tanlab oladi, ta'lifiy va tarbiyaviy ishda pedagogik-psixologik ta'sir ko'rsatish usullari sifatida qo'llaydi. Xulosa o'rnida aytish joizki, o'qituvchi o'quvchining ichki dunyosini tushinishi uchun psixologik bilimlarga yaxshi ega bo'lishi zarur. Bu o'quvchining darsga qiziqtira olishi, o'quv materiallarini tushuntira bilishi, o'quvchining bilimlarini to'g'ri baholay olishi, bolalarga ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi, o'quvchilar jamoasining mehnatini tashkil etib, ularga rahbarlik qila bilishi, pedagoglarga xos odobga ega bo'lishi, har bir o'quvchi bilan individual muomalada bo'la olishidir. Shundagina u o'quvchilarni o'quv jarayoniga jalb eta oladi. Muammoli o'qitish usulida o'quvchilarga aniq javobi bo'lmagan muammolar berilib, ular mustaqil ravishda yoki guruvida muhokama qiladi. Rolli o'yinlar va interaktiv mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijtimoiy va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Guruhiy ishlarda hamkorlikda ishslash orqali bilim almashish va jamoaviy fikrlashni kuchaytiradi. Ko'rgazmali o'qitish vositalari mavzuni yaxshiroq tushunishga va o'quvchilarning e'tiborini jamlashga yordam beradi. Vizual materiallar: diagramma, grafikalar, xaritalar orqali murakkab tushunchalarni sodda shaklda yetkazish imkonini beradi. Amaliy mashg'ulotlar: tajriba va eksperimentlar o'quvchilarning bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi. Model va maketlar: murakkab obyektlarni sodda shaklda tushuntirish imkonini beradi. Individual yondashuv va differensial o'qitish tizimi har bir o'quvchining o'ziga xos rivojlanish sur'ati va qobiliyatini inobatga olgan holda: o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlariga qarab moslashtirilgan bo'ladi. Motivatsion strategiyalar esa har bir bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantiradi. Boshlang'ich

**“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: INSON, FAN VA IQTISODIYOTNING  
YANGI UFQLARI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi

10-Mart, 2025-yil

sinf o’quvchilarini samarali o’qitishda axborot-kommunikatsiya jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, interaktiv taqdimotlar ta’limiy dasturlar va ilovalar orqali mavzuni tushuntirish imkonini beradi, onlayn o‘yin va testlar o’quvchilarning bilimini baholash va mustahkamlashga yordam beradi. Virtual laboratoriylar: tajriba va amaliy ishlarni masofadan turib bajarish imkonini beradi. Boshlang‘ich sinf o’quvchilari bilim olish jarayonida faol ishtirok etishlari va o‘rganishga qiziqishlari uchun o‘qituvchi turli xil usullardan foydalanishi zarur. O‘yinli o‘qitish usuli -o‘yin bolalar uchun eng tabiiy o‘rganish vositasidir. O‘yinli faoliyat orqali o’quvchilar murakkab tushunchalarni ham oson va qiziqarli tarzda o‘zlashtiradilar, e’tibor va motivatsiyani oshadi, bilimlarni mustahkamlashda samarali bo’ladi, ijodiy fikrlash va tez qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Loyihaviy o‘qitish o‘quvchilarga mustaqil yoki guruh bo‘lib tadqiqot olib borish va natijalar asosida loyiha yaratishga imkon beradi. Loyihaviy o‘qitish o‘quvchilarning tadqiqotchilik va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, mavzuni chuqur o‘rganishga undaydi, hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

**Xulosa:** Boshlang‘ich sinf o’quvchilari uchun samarali o‘qitish usullari — bu faqatgina bilim berish emas, balki bolalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Faol o‘qitish metodlari, ko‘rgazmali va amaliy mashg‘ulotlar, shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Muhimi, har bir bola bilim olishdan zavqlanadigan, o‘zini erkin his qiladigan o‘quv muhitini yaratishdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish to‘g‘risida”gi qarori. 2021-yil 6-aprel.
3. Hasanboyeva, O., Yo‘ldosheva, M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Shodmonqulova, N. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Vigotskiy, L.S. Bolalar psixologiyasi va ta’lim. Moskva: Pedagogika, 1986.
7. Jononov, R., Qosimov, S. Interaktiv o‘qitish metodlari. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019.
8. Maxmudovna, M. F. (2024). Tarbiya jarayonining mohiyati va asosiy yo‘nalishlari. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 1(3), 141-147.
9. Maxmudovna, M. F. (2024). Inclusive ta’lim tizimi: imkoniyati cheklangan bolalar uchun yangi imkoniyatlar. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 1(3), 162-168.

**“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: INSON, FAN VA IQTISODIYOTNING  
YANGI UFQLARI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiysi

10-Mart, 2025-yil

10. Maxmudovna, M. F. (2024). O ‘quvchilarning psixologik xususiyatlari va ta’lim jarayoniga ta’siri. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 1(3), 128-134.
11. Maxmudovna, M. F. (2024). Xxi asrda ta’lim texnologiyalarining o ‘rni va ahamiyati. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 1(3), 176-182.
12. Maxmudovna, M. F. (2024). Oilaviy tarbiya va maktab ta’limi integratsiyasi: muammolar va yechimlar. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 1(3), 169-175.
13. Maxmudovna, M. F. (2024). O ‘qituvchi va o ‘quvchi o ‘rtasidagi munosabatlar: motivatsiya va natijalar. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 1(3), 183-189.
14. Maxmudovna, M. F. (2024). Rivojlangan ta’lim tizimlarining o ‘quvchilar shaxsiga ta’siri. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 1(3), 135-140.
15. Dinara, A. (2024). O’smirlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi ijtimoiy va psixologik omillar va ularni bartaraf etish. Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 2(1), 165-170.
16. Rahmuddinovna, A. D. (2024). O’quvchilarni psixologik qo’llab-quvvatlashning ahamiyati. The latest pedagogical and psychological innovations in education, 1(2), 208-214.
17. Rahmuddinovna, A. D. (2024). Ta’lim texnologiyalarining psixologik asoslari. The latest pedagogical and psychological innovations in education, 1(2), 202-207.
18. Rahmuddinovna, A. D. (2024). Iqtidorli bolalar bilan ishslash psixologiyasi. The latest pedagogical and psychological innovations in education, 1(2), 248-254.
19. Rahmuddinovna, A.D. (2024). O’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi munosabatni boshqarish usullari. The latest pedagogical and psychological innovations in education, 1(2), 222-228.